



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 25-Dekabr 2021

Chop etildi: 30-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

toshbosma, litografiya, xattot, kitobiyat.

KITOB TARIXI

Jumaniyazova N.A.¹

Mavlonova Sh.T.²

^{1,2} Farg'ona Davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5830617>

ANNOTATSIYA

maqolada kitobning yaratilish tarixi, ilk bosmaxonalarning qanday vujudga kelganligi, qadimgi xattotlik tarixidan boshlab bugungu kunda kitobning inson hayotidagi tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Kitob tufayli biz qadimgi tarix haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz, qadimgi madaniyat, urf-odatlardan xabardor bo'lishimiz va bularning bari kitob orqali avloddan avlodga etkazuvchi vosita ekanligi haqida gapiriladi. Hozirgi kunda zamonaviy aloqa vositalaridan foydalanish juda qulay, oson bo'lishiga qaramay kitob o'qishning zavqi, inson xulq-atvoriga, hissiyotlariga ta'siri o'zgachadir. Kitob shunday kuch-qudratga egaki, insonning butun hayotini o'zgartirib yuborishga qodir. Kitob inson tarbiyasiga, uning komil inson bo'lib etishishiga, o'zligini, butun dunyoni tanishida juda katta rol o'ynaydi.

Kitob – insonni ulug'laydigan, unda ma'naviyat va ma'rifat asoslarini shakllantiradigan, uni komil inson qilib tarbiyalaydigan kuch, u dunyo va bu dunyoni tanitish manbai. Biz o'zligimizni, dunyoni, olam va odam munosabatini kitob orqali bilib olamiz. Bosmaxonalar vujudga kelgunga qadar qadimiy Turon zaminida kitoblar kotiblar tomonidan ko'chirilgan. Yuksak mahoratli xalq musavvirlari ularni mo'jaz rang-tasvir asarlari miniatyuralar bilan bezatishgan. Ularning avloddan avlodga o'tib kelayotgan san'ati beqiyos edi.

O'rta asrlarda, kitob bosish texnikasi hali ixtiro etilmagan vaqtda har qanday asar

qo'lda ko'chirilib kitob qilingan. Bu hunar egalari tarixda xattot yoki kitobatchi nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu kasb eng sharaflari va muqaddas hisoblangan. Kotibning savodli ekanligi uning qadrini yuqori darajaga ko'targan. Xattot kitobni ko'chirish jarayonida uning mazmunini o'zlashtira borgan. Natijada kotib o'z zamonasining o'qimishli, ilm-ma'rifat egalari qatoridan joy olgan. Arab yozuvida kitobat qilingan qo'lyozmalar tufayli biz ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan madaniy me'rosdan bahramand bo'lmoqdamiz. Shu bebaho manbalar tufayli Markaziy Osiyo xalqlari jahon madaniyati taraqqiyotiga munosib



hissa qo'shgan. Ma'lumki, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Samarqand va Toshkent xattotlik maktablari qadimda mashhur bo'lgan. Faqat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda 75, Samarqandda 22, Xivada 47, Toshkentda 25, Farg'onada 38 mashhur va taniqli xattot bo'lib, ular xalqimiz yaratgan asl ilmiy va ma'rifiy durdonalarni bizga kitob holida qoldirishgan.

Turkistonda nashr ishlari O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng boshlangan. Bu davrgacha o'lkada bosmaxona ham, litografiya (toshbosma) ham bo'lmagan. Adabiyotga bo'lgan ehtiyoj esa Turkistonga tashqaridan kirib qolgan ayrim sharqiy toshbosma qo'lyozmalar bilan qondirilgan xolos. O'lkani chor Rossiyasi bosib olganidan keyin kitob nashri uchun zarur moddiy-texnika baza yaratildi. Nashr ishlarining bir qadar yo'lga qo'yilishi kitobning aholi orasiga chuqur kirib borishi uchun yo'l ochdi, yurtimizda matbuot ishi rivojlanishiga turtki bo'ldi, fan va madaniyatdagi ilg'or g'oyalarning tarqalishiga yordam berdi.

Turkistonda bosma usuli bilan kitob chiqarish O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingandan keyin tarqaldi. 1868 yil Toshkentda Turkiston harbiy okrugi shtabining bosmaxonasi tashkil etildi. Shu bosmaxonada nashr etilgan rus olimi va sayyohi N.A.Severtsovning «Chu va Norin tizmalari etagidagi tog'li o'lka to'g'risida lavhalar» (rus tilida) kitobi Turkistondagi ilk bosma kitobdir. O'zbek tilidagi birinchi bosma kitob Shohimardon Ibrohomovning 1871 yil Xivada bosilgan «Kalendar»idir. Birin-ketin Turkistonning boshqa shaharlarida ham xususiy litografiyalar tashkil etildi. Bulardan Otajon Abdalov (Xivada), Semyon Laxtin (Toshkentda), G'ulom Hasan Orifjonov (Toshkentda)

litografiyalari mashhur bo'lgan. Bu bosmaxonalarda adabiy, falsafiy, diniy, tarixiy asarlar va darsliklar chiqarilgan.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab o'zbek tilida ham kitoblar chop etila boshlaydi. 1880 yili Yangi Marg'ilon, 1905 yili Andijon shaharlarida yangi bosmaxonalar ish boshlaydi. Asosan, o'zbek va tojik tillarida chiqarilgan kitoblar toshbosma usulida chop etiladi. Muxammad Rahimxon II – Feruz (1844-1910) xonlik qilgan davrda Xiva davlatining bir oz markazlashuvi natijasida bu erda ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojlandi. Feruz tashabbusi bilan Xiva shahrida toshbosma tashkil etiladi. Unda Feruzning farmoni bilan Alisher Navoiyning «Chor devon», «Xamsa» singari asarlari ilk bor chop etiladi. Bundan tashqari, Munis, Ogahiy, Komil, Bayoniy, Mirzo, Avaz O'tar, Devoniy, Niyoziy, Chokar singari shoirlarning asarlari ko'plab nusxada bosilib chiqdi. Saroy kutubxonasida saqlanayotgan nodir qo'lyozma asarlarini kitob shaklida nashr qilish maqsadida Erondan toshbosma anjomlari Xivaga keltirilishi katta ahamiyatga ega. 1880 yilda Xorazmda Alisher Navoiyning «Xamsa», Munisning «Devoni Munis», «Devoni Roja» asarlari chop qilinadi. 1904-1905 yillarda O.Portsev tomonidan Alisher Navoiyning «Xamsa» asari chop etiladi. Tabiiyki, o'zbek xalqining ona tilida dastlabki kitoblar chiqarilishi milliy ziyolilarning qiziqishini uyg'otadi. XX asr boshlarida ulardan ko'pchiligi kitob chiqarishda ishtirok etibgina qolmay, o'z toshbosmalarini ham ochishadi. 1908-1913 yillarda Alisher Navoiyning kitoblari o'n martadan ko'p chop etildi. Milliy kitoblarning Markaziy Osiyoda keng tarqalishida toshbosmaning o'rni beqiyos bo'ldi. 1913 yili kitob nashri bor-yo'g'i 56



nusxani, shuningdek, o'zbek tilida 33 nusxani tashkil etgan. Ularning umumiy adadi 100 ming nusxani, o'zbek tilidagisi atigi 8 ming nusxani tashkil etgan.

Kitoblar Turkiston xalqlarining madaniy hayotida sezilarli ro'l o'ynadi. Ammo kitob nashr etish yil sayin oshib borgani bilan tezkor zamon talablariga javob bera olmas edi.

Kitob, uning ahamiyati bugungi kunda ham aslo pasaygani yo'q. Internet, uyali telefon, mobil texnika kabi aloqa vositalari ko'payganiga qaramasdan kitob o'ziga xos jozibasi, kuchini saqlab qolmoqda. Milliy o'zlikni anglash, yoshlarimizda yuksak madaniyatni shakllantirish, ularni ezgu fazilatlar sohibi etib tarbiyalashda kitobning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Kitob bizning nafaqat ongimizga, balki qonimizga, jonimizga singib ketgandir. Insondagi kitobga bo'lgan mehr u harfni tanib, mutolaa qilishni o'rganganidan keyin boshlanmaydi, balki go'daklik davridan ulg'aguniga qadar onasi aytgan allalar, buvisidan eshitgan ertaklari orqali yoshligidan kitob o'qishga nisbatan mehr va ishtiyoq shakllana boradi.

Lekin kimni qanday kitob tanlab o'qishi o'ziga bog'liq. Hozir aksariyat yoshlar kitob o'qishga qiziqmay qo'yishdi. Ular ko'proq internetdan ma'lumotlar izlashga, yangiliklarni ham onlayn tarzda topib o'qishga moyil bo'lib borishmoqda. Kitob tanlashda, uning qanday mazmunda yozilganligiga e'tibor qaratish nechog'lik

muhimligini bugungi yoshlar bilishadimi? Kitob shunday katta kuch-qudratga egaki, u insonni va uning taqdirini ham o'zgartirib yubora oladi. Kezi kelganda hech kim unga gap uqtira olmagan, odamlar bilan murosaga kelib yashay olmaydigan kimsa kitobda yozilgan birgina gapni o'qiganida, undan ta'sirlangan holda atrofdagilarga nisbatan xushmuomala bo'lib qolishi mumkin.

Ba'zilar insondagi bilimlarni oshirib, ma'naviy dunyosini boyitishda unga yordam beradigan asosiy vosita kitob ekanligini ta'kidlasa, boshqa birovlar esa zamon bilan birga olg'a qadam tashlashda hamda yangiliklardan tezkor ravishda xabardor bo'lib turishda kitob o'qib o'tirishdan ko'ra internet, zamonaviy aloqa vositalari qulayroq ekanligini aytadi.

Tarbiyada bola kamolotga etguniga qadar ota-ona farzandlariga ularning yoshiga mos kitoblar tanlab, o'qib berishlari, ertaklar aytib dunyoqarashini boyishiga turtki bo'lishlari lozim. Keyin esa bolalari mustaqil o'qiy boshlaganlarida qiziqarli kitoblar xarid qilib berib, bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Bilim olishga bo'lgan ishtiyoq, kitobga bo'lgan mehr qanchalar ko'p bo'lsa, insonning madaniyati tobora yuksalib, uni ezgu amallar qilishga chorlayveradi. Zotan, ma'naviyatni boyitishda xoh kitob bo'lsin, xoh internet, undan maqsadli foydalanilsagina ijobiy natijaga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Katsprjak E.I. Istoriya knigi.
2. Sidorov A.A. Kniga i jizn.
3. Rustamov M. O'zbek kitobi.
4. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan.